ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UO‘K:494:3:297 **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2217

DINIY MATNLARDA MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARINING IFODALANISHI

Sh.R.Amonturdiyeva
Termiz davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada diniy matnlarda so‘z turkumlarining qo‘llanilishi va uning boshqa funksional uslublar morfologiyasidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega ekanligi “Manba ul-maorif” hamda “Javohir ul-hikoyot” asarlaridan olingan misollar vositasida yoritib berilgan.

Shuningdek, diniy matnlarda mustaqil so‘z turkumlarining qo‘llanilishi o‘zbek tilining umumiy qonuniyatlari doirasida bo‘lganligini tasdiqlash bilan birgalikda xususiy holatlar ham mavjudligi va uning hozirgi tilda ham davom etib kelayotganligi asoslab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Matn, diniy matn, mustaqil so‘z turkumi, ot, sifat, son, olmosh.

Выражение самостоятельные части речи в религиозных текстах

Аннотация. В данной статье на примере произведений «Манба уль-маориф» и «Джавахир уль-хикайот» раскрываются особенности употребления самостоятельных частей речи в религиозных текстах и то, что они имеют отличие от морфологического строя функциональных стилей.

Также подтверждается, что употребление самостоятельных частей речи в религиозных текстах находятся в рамках общих закономерностей узбекского языка, а также наличие особых падежей, которые продолжают использоваться и в современной лингвистике.

Ключевые слова: Текст, религиозный текст, самостоятельные части речи, существительное, прилагательное, число, местоимение.

Expression of independent parts of speech in religious texts

Abstract. In this article, on the example of the works “Manba ul-Maorif” and “Jawahir ul-Hikayot”, the features of the use of independent parts of speech in religious texts and the fact that they differ from the morphological structure of functional styles are revealed.

It is also confirmed that the use of independent word groups in religious texts is within the framework of the general laws of the Uzbek language, as well as the existence of special cases and the fact that it continues in the current language.

Key words: Text, religious text, independent word group, noun, adjective, number, pronoun.

Diniy matnlarda so‘z turkumlarining qo‘llanilish boshqa funksional uslublar morfologiyasidan farq qiluvchi xususiyatlarga ega. Aytish mumkinki, bu turdagi matnlarda so‘z turkumlarining qo‘llanishi o‘zacha. Ushbu o‘ziga xosliklar haqida muayyan fikrga kelish uchun ularni o‘zbek tili so‘z turkumlari misolida tahlil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ot. Ushbu so‘z turkumiga kiradigan so‘zlar semantikasi DMlarda rang-barangdir. Mavhum otlarning aniq otlarga nisbatan faolligi, xoslangan terminologiya – teonimik atamalarning ko‘pligi buning dalilidir. DMlardagi otlarni dastlab guruhga – atoqli va turdosh otlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Turdosh otlar ushbu matnlar tilida katta miqdorni tashkil etsa-da, ularning lingvistik tadqiqi funksional-stilistik nuqtai nazaridan qiziqarli material bermasligi mumkin.

Ammo atoqli otlarning semantik-stilistik tadqiqi bu imkoniyatlar ko‘lamining keng ekanligi ko‘rsatadi. Masalan, DMlarda faol qo‘llanadigan va xoslangan payg‘ambarlar, farishtalar, valiylar, anbiyoyu avliyolar, sahobalarning otlari, Muhammad alayhissalom hayoti va faoliyati bilan bog‘liq joylarni olaylik. Ularni quyidagi guruhlanishlarda berish mumkin:

-payg‘ambarlar. Qur’oni karimda ularning 25 tasining ismlari zikr qilingan: Odam alayhissalom, Idris alayhissalom, Nuh alayhissalom, Hud alayhissalom, Solih alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Lut alayhissalom, Ismoil alayhissalom, Is’hoq alayhissalom, Ya’qub alayhissalom, Yusuf alayhissalom, Ayyub alayhissalom, Shuayb alayhissalom, Muso alayhissalom, Horun alayhissalom, Yunus alayhissalom, Dovud alayhissalom, Sulaymon alayhissalom, Ilyos alayhissalom,

al-Yasa’ alayhissalom, Zakariyo alayhissalom, Yahyo alayhissalom, Zul-Kifl alayhissalom, Iyso alayhissalom, Muhammad alayhissalom kabi.

Bu nomlar DMlar antroponimik tizimida asosiy bo‘g‘inni tashkil etadi va ular orasida payg‘ambarlar nomlarining qo‘llanish chastotasi yuqori;

-farishtalar. Farishtai muqarrablar – Jabroil, Azroil, Mikoil, Isrofil;

-sahobalar. Payg‘ambar Muhammad sallalohu alayhi va sallamning 33 ming sahobalari bo‘lgan;

-Muhammad payg‘ambar sallalohu alayhi va sallam hayoti va faoliyati bilan bog‘liq joylar: Makka, Madina, Arofat, Tur tog‘i, Uhud, Yaman, Hijoz, Xaybar kabilar.

Ma’lum qismigina sanab o‘tilgan bu atoqli otlar tilimizda antroponimlar sifatida qadimdan mustahkam o‘rin olgan.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da din. stilistik belgisi bilan qayd etilgan va Allohning sifatlarini anglatadigan Razzoq, Xoliq; payg‘ambarlarni ataydigan Ibrohim, Ismoil, Yoqub, Yusuf, Ayyub, Musa, Yunus, Sulaymon, Ilyos, Iso, Muhammad, Nabi; Muhammad alayhissalom avlodiga mansublikni bildiradigan Said/Saida, Ibrohim payg‘ambar laqabi Halilulloh ning qisqargan shakli Halil, Xudo yo‘lida qurbonlik qilishdan kelib chiqqan Qurbon kabi ismlar ham shular jumlasidandir[1].

Buning natijasida Aziz, Azim, Ali, Alim, Amin, Ansor, Ashur, A’lam, Ahad, Basir, Bashorat, Bosit, Vadud, Vali, Vahob, Voris, Vose, Vohid, Darvish, Jalil, Jomi, Jorulloh, Ziyo, Zikrilla, Zokir, Zohid, Zohir, Zulfiqor, Ilhom, Iroda, Islom, Iso, Isroil, Isrofil, Kabir, Kavsar, Karim, Komil, Mavlon, Madina, Majid, Mag‘firat, Mirhoji, Mujrim, Munojot, Muslim, Mustafo, Musulmon/Musurmon, Muhsin, Namoz, Ne’mat, Nur, Obro‘y, Orif, Ofiyat, Ramazon, Rasul, Rashid, Rauf, Rahim, Rahmat, Rahmon, Rizvon, Risolat, Salom, Saloh, Sanam, Sarvar, Safo, Sufi, Siddiq, Sobir, Solih, Subhon, Fattoh, Xo‘ja, Qahhor, Qodir, Quddus, G‘affor, Hazrat, Hayit, Hamid, Hanifa singari yuzlab ismlar atoqli otlar sifatida ona tilimiz onomastik tizimidan mustahkam o‘rin olgan.

Sifat. O‘zbek tiliga -iy,-viy sifat yasovchi qo‘shimchalari azaliy, muhasibiy, xattobiy, badaviy, ma’naviy, ilmiy, islomiy, umumiy, diniy kabi arab tili so‘zlari bilan birga kirib kelgan. DMlarda ularning miqdori juda ko‘pchilikni tashkil etadi. Ammo bu birikuvlarning hammasi ham hozirgi o‘zbek tili uchun odatiy sanalmaydi. Masalan, fe’l, sha’n, avzo, hamd, e’tiqod so‘zlari singib ketgani holda uning fe’liy, sha’niy, avzoiy, hamdiy, e’tiqodiy shakllari haqida bu gapni aytib bo‘lmaydi: Duolar ikki qismdir: 1.Fe’liy duo, 2. Qovliy duo. Qovliy duo fe’liy duodan so‘ng bo‘lsa ijobat bo‘ladi. Fe’liy duosi qovliy duosiga, qavliy duosi fe’liy duosiga zid bo‘lmagan kimsalar iymon bilan o‘lsalar, oson hisob qilinadi yoki hisobsiz jannatga kiradilar. Olim Qur’onning usul va tafsirini, hadislarning usul va sharhini, e’tiqodiy va axloqiy masalalarni yaxshi bilib amal qilishi kerak kabi. Ammo bu birikuvlarda g‘ayriilmiylik yo‘q, faqat noodatiylik bo‘lishi mumkin. Shunga qaramasdan, bu kabi qo‘llanishlar DMlarga rasmiylik, jiddiylik bag‘ishlaydi.

Son. DMlarda sonlar asosan otlar bilan birga qo‘llaniladi va alohida kelganda mavhum ma’no ifodalaydi. Miqdor va tartibni bildiruvchi sonlar ko‘p qo‘llaniladi. Tartib sonlar adabiy tildagi kabi predmetlarning sanoqdagi tartibini, ketma-ketlikni bildiradi. Ular sanoq sonlarga -nchi (-inchi) affiksini qo‘shish bilan hosil qilinadi: Payg‘ambar alayhissalom aydilarki: - Har kimki besh nav’ joyda kulsa, Xudoyi taolo ani yigirma besh yillik ibodtini habo (yo‘q) va bekor qilur. Va ul besh joyni biri – mozorda kulmoq va ikkinchisi – tobutni orqasidin kulmoq va uchinchisi – sajdada kulmoq va to‘rtinchisi Qur’on o‘qub turg‘on joyda kulmoq va beshinchisi – ilmdin zikr qilib turilg‘on joyda kulmoq nodurustdur (“Manba’ ul-maorif”).

Bu misolda dona, miqdor bildiruvchi sonlar qatori tartibni bildiruvchi sonlar ham mavjud bo‘lib, ular besh joyda qo‘llanilgan. Fikrlarning bu tarzda ketma-ket, tartib bilan berilishi DM turlaridan bo‘lgan hadislarda ko‘p uchraydi. Bunda payg‘ambar hadisalarni asl holida o‘quvchiga yetkazish ham ko‘zga tutilgan bo‘ladi.

Diniy matnlarda qo‘llanilgan miqdor bildiruvchi so‘zlar orasida bir so‘zi turli xil semantik-uslubiy vazifalarni bajarganligini ko‘rish mumkin. Masalan: miqdor: Payg‘ambar alayhissalom aydilar: Bir non sadaqa qilmoq yuz rak’at nafl namozdin afzaldur (“Manba’ ul-maorif”); noaniqlik: Bir kuni hazrati Umar raziyallohu anhu raislik vaqtlarida Madinai munavvaraning ketaturub erdilar… (“Javohir ul-hikoyot”); ma’noni kuchaytirish: …bu hissada bir zo‘r ibrat berdurki, Hazrat Odam

alayhissalom avlodlari go‘yo ul faqir yigitdek shikastalik ila davlati uzmog‘a etgandurlar (“Javohir ul-hikoyot”); o‘xshatish: Binobarin bul kishini o‘t kuydurmadi. Balki go‘yo bir guliston bo‘ldi…(“Javohir ul-hikoyot”); ajratib ko‘rsatish: Bir kuni Yusuf alayhissalom yoshlig‘ vaqtlarida yosh bachalar birla o‘ynab o‘lturgan vaqtlarida bir og‘alari ul kishining oldilarig‘a kelib tamosho qilib turub erdilar (“Javohir ul-hikoyot”).

Ushbu misollardan diniy matnlar tilida son turkumiga kiruvchi so‘zlarning uslubiy imkoniyatlari keng ekanligi ko‘rinadi.

Olmosh. DMlarda qo‘llangan olmosh shakllari, masalan, kishilik olmoshlari eski o‘zbek tilidagi ko‘rinishlarga mos keladi: birlikda -man, -san, -ul, ko‘plikda -biz, -siz, ular/alar kabi. “Qadimgi yodgorliklarda ko‘rsatilishicha, turkiy tillarda kishilik olmoshlarining dastlab men (ben), sen, (sin), biz, siz, ul (ol) formalari mavjud bo‘lgan. -lar/-ler affiksi bilan yasalgan bizlar, sizlar, ular, alar anlar kabi formalari esa keyinchalik vujudga kelgan”[2]. Andin so‘ngra Jabrail alayhissalom kelib shahiddin so‘rarlarki: “Ey shahid, san dunyoda nima amal qilib erdingki, jannatg‘a avval kirmoqni orzu qilursan?”. Shahid ayturki: “Yo Jabrail, man dunyoda Xudoi taolo razilig‘i uchun jon berg‘ondurman”. “…Bizlar shundog‘ odamdurmizki, bizlarg‘a Qur’on nozil bo‘lg‘ondur… (“Manba’ ul-maorif”). Andin so‘ngra Xudoyi taolo ayturki: “Yo Jabrail, andog‘ bo‘lsa borg‘il, alarni xabarlarini Muhammad alayhissalomg‘a yetkurg‘il” (“Manba’ ul-maorif”) kabi.

DMlarda ko‘rsatish olmoshlarining ul, bul, shul, o‘shal kabi shakllari keng qo‘llanilgan: Man Yusufni bul bahog‘a sotmasman. Magar har kimki, olamda bor nimarsalarini har biridin Yusufning vaznig‘a barobar tortib bersa, o‘shal odamg‘a soturman, - deb erdi…(“Javohir ul-hikoyot”). Bas, agar ul bandai mo‘min bo‘lsa, ani o‘ng tarafidin kelib jonini olib illiying‘a olib chiqarlar…(“Manba’ ul-maorif”).

DMlarda ham belgilash olmoshlari shaxs, predmet va belgini ajratib ko‘rsatish, jamlash, umumlashtirish ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular har so‘zi ishtirokida tuzilgan murakkab tipdagi olmoshlar, ya’ni har kim, har nima, har narsa, har qanday kabilar predmet, shaxs yoki belgini ajratishi uchun, hamma, barcha, bari, jam’i kabilar esa jamlik, umumlashtirishni ifodalash uchun qo‘llaniladi: Har kimki kechasi tahorat birla yotsa, go‘yoki ani yotqon o‘rni masjid bo‘lur… (“Manba’ ul-maorif”). Ani gunohidin pok qilib, hamma gunohini mag‘firat qildim… (“Manba’ ul-maorif”).

Bas, Xudoyi taolo ayturki: “Yo Muhammad, sani hurmatingdin jam’i osiy ummatlaringni gunohlarini kechdim…” (“Manba’ ul-maorif”). Bu misollarda qo‘llanilgan hamma, jam’i olmoshlari o‘zaro sinonimik munosabatga kirishishi, birining o‘rnida ikkinchisini qo‘llash mumkin.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida so‘roq olmoshi hisoblangan qanday? so‘zining o‘rniga DMlarda ko‘pincha nechuk? qandog‘? so‘zlari qo‘llanilgan: O‘tlar ayturki: “Bularni qandog‘ kuydirarmizki, hammalari kalimai shahodatni aytib turubdurlar…” (“Manba’ ul-maorif”). Ey Malik, alarni hollari nechukdir? (“Manba’ ul-maorif”). Misolda qo‘llanilgan nechuk so‘roq olmoshining asli kelib chiqishi ne so‘roq olmoshiga aloqador bo‘lib, u biror harakat yoki holatning hosil bo‘lishi sababi, usuli to‘g‘risidagi so‘roqni ifodalashga xizmat qilgan.

Matnlarda nechuk olmoshining nima uchun? ma’nosida qo‘llanilishi ham uchraydi: Endi nechuk Odam alayhissalomni jannatdin chiqarmakda gunohkor qilib, ihonatu ajz birla chiqarib, jannatg‘a kirmakda e’zozu ikrom birla kirguzmoqda hikmat nimadur? (“Javohir ul-hikoyot”).

Bundan tashqari matnlarda nima? so‘roq olmoshiga ersa qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan nimarsa gumon olmoshi ham qo‘llanilgan. Bu olmosh eski o‘zbek tilida gumon ma’nosini ifodalashda faol qo‘llanilgan: Islomu musulmonlik ushbu besh narsag‘a bino qiling‘andurki, har kimda ushbu besh nimarsa mavjud bo‘lmasa anda musulmonlik bo‘lmas, - deyibdurlar (“Javohir ul-hikoyot”).

Yuqorida keltirilgan misollar diniy matnlar tilida olmoshlar ma’lum bir uslubiy vazifalarni bajarishda faol qo‘llaniluvchi vositalardan ekanligini ko‘rsatadi.

Boshqa so‘z turkumlaridan o‘zining grammatik kategoriya va shakllarga boyligi bilan ajratilib turadigan fe’l DMlarda ham faol qo‘llaniladi. Ular tarixiylik nuqtai nazaridan muayyan struktural jihatlari bilan farqlanib turadi.

Bu holatlar ayniqsa, fe’lning zamon shakllarida aniq namoyon bo‘ladi. Fe’lning zamon va mayl bildiruvchi shakllari aksariyat hollarda edi to‘liqsiz fe’lning erdi shakli bilan birga qo‘llanilangan: Yusuf alayhissalomni Misr shahrig‘a olib keldilar va sotdurmoq uchun dallolg‘a

topshirub bozorg‘a kirguzub erdilar… (“Javohir ul-hikoyot”). “Sho‘ayb alayhissalomg‘a daraxtdin ovoz chiqib so‘zlagan erdi (“Javohir ul-hikoyot”) kabi.

DMlar tilida o‘tgan zamon fe’lining -di, -ti shakli birday faol qo‘llanilgan: Muhammad alayhissalomning islarini toptilar (“Javohir ul-hikoyot”). Muhammad alayhissalom qandog‘ eshittilar… (“Javohir ul-hikoyot”). -b(-ib,-ub) affiksli ravishdosh asosida yasalgan o‘tgan zamon fe’llari o‘tgan zamon fe’lining analitik shaklini hosil qilishida erdi shakllari bilan turli modallik ma’nolarini ifodalagan: Odam alayhissalom gunohkor bo‘lub erdilar…(“Javohir ul-hikoyot”). …ul tanburni cholmoqni qasd qilib qo‘lini uzatib erdi… (“Javohir ul-hikoyot”) kabi.

DMlarda -r(-ar/-ur) affiksli hozirgi kelasi zamon fe’liga erdi to‘liqsiz fe’li qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan shakllar ham uchraydi: Agar har kim ul kishini ko‘rsa bul kishi odam farzandi emas, magar farishtadur deb gumon qilar erdi va ul kishini muborak jasadlaridin chunon xushbo‘ylik kelur erdiki Ya’qub alayhissalomning islarini bilur erdilar…(“Javohir ul-hikoyot”) singari.

Erdi to‘liqsiz fe’li yuqorida qayd etilgan ko‘rinishlardan tashqari -sa erdi shaklida ham ishlatilgan[3]. DMlarda ham uning bu ko‘rinishi uchraydi. “Boburnoma” tili bo‘yicha kuzatishlar olib borgan tilshunos olim H.Nazarova shunday fikrlarni bildirgan: “To‘liqsiz fe’lning “r”li va “r” siz formasi (erdi, edi) ham “Bobirnoma”da uchrab, uning “r”li formasiga nisbatan “r” siz formasi ko‘p qo‘llanilgan. Chunonchi “Bobirnoma” tili kuzatib chiqilganda shu narsa aniqlandiki, sostavli kesimlar tarkibida kelgan to‘liqsiz fanning “r” li formasi 199, “r” siz formasi 2341 marta uchraydi. Alisher Navoiy asarlari tilida oradan uncha ko‘p vaqt o‘tmaganligiga qaramay, “r”li forma nisbatan juda ortiqdir. Bu narsa XVI asr va undan keyingi davrlarda “r”li forma asta sekin o‘z o‘rnini “r”siz formaga bo‘shatib bera borganligini ko‘rsatadi. Shubhasiz, bunda Bobir tilining alohida ta’siri bo‘lgan”[4].

DMlarda faol qo‘llanuvchi affikslardan biri -gay/-g‘ay affiksidir. Eski o‘zbek tilida bo‘lgani kabi -gay affiksi diniy matnlar tilida ham faoldir: Ollohu ta’olodin o‘tg‘a: “Yo noru kuni bardan va salaman ala Ibrohima”, - nidosi kelgay va o‘t ichidagi xashaklar ko‘karib sabzavor bo‘lub, gullar ochilg‘ay va o‘tunlar ko‘karib mevalar hosil qilg‘aylar va ne’matlar birla narim bo‘lg‘aylar va o‘tlarning quruqlig‘i ho‘llikg‘a aylanib o‘tlar orasidin anhorlar joriy bo‘lg‘ay, - deb erdilar…” (“Javohir ul-hikoyot”).

“Eski o‘zbek tilida (boshqa turkiy tillarda ham) -g‘ay/-gay/-qay/-kay affiksli forma ko‘p ma’noli bo‘lgan. Shuning uchun turkologik adabiyotlarda bu forma har xil nomlar bilan atalib kelmoqda…”[5].

DMlarda -g‘ay affiksi kelasi zamonni ifodalashidan tashqari matnga kitobiylik, rasmiylik va yuqori uslub ottenkasini berish singari stilistik xususiyatlari bilan namoyon bo‘ladi.

Tahlillar diniy matnlarda mustaqil so‘z turkumlarining qo‘llanilishi o‘zbek tilining umumiy qonuniyatlari doirasida bo‘lganligini tasdiqlash bilan birgalikda xususiy holatlar ham mavjudligini va uning hozirgi tilda ham davom etib kelayotganini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, Besh jildlik, 1-5-jildlar. – Toshkent, 2006-2008.
2. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. -Toshkent, O‘qituvchi, 1973, -B.91.
3. Nazarova X. Bobir va o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Fan 1983, -B.25-26.
4. “Вопросы грамматического строя”, Издательство академий Наук СССР. Москва, 1955.
5. Muhitdinov X., Xudoyberganova D., Umirov I. va boshqa. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (o‘quv qo‘llanma), T., Ilm-ziyo, 2004.
6. Ishonch Zikrulloh, Hozirgi o’zbek tili, Kobul, Nigorxona matbaasi, 2014.
7. Sayfullahyeva R.R. Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H. va boshqa. Hozirgi o’zbek adabiy tili, T., fan va texnologiya, 2010.
8. Tursunov U. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 1992.
9. Sapayev Q. Hozirgi o‘zbek tili. T., 2009.